

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONI HIKOYATLARI HAQIDA OLIMLAR  
FIKRI

(VIEW OF SCIENTISTS ABOUT “SADDI ISKANDARIY” OF EPICS)

Shodiya Otanazarova

*O'zbek filologiyasi fakulteti,*

*3-kurs talabasi,*

*Alisher Navoiy stipendiyasi sohibasi*

**Abstract.** There is talk of “Saddi Iskandariy”, which is part of 2 of prof. Bertels’s “The Epic of Alexander and it is Basic in the East” in the article. This six-chapter pamphlet reveals the history of writing “Saddi Iskandariy”, the attitude and composition of Hazrat Jami to it, the differences of Navoi Iskandar of “Khamsa” on the basis of factual materials.

**Keywords:** lithography, great and serious poet, text errors, epic, verse, comparison of manuscripts, reason for writing the epic, “Khamsa” editions.

Peterburglik sharqshunos olim E.Bertelsning “Aleksandr haqida doston va uning sharqidagi asosiy versiyalari” nomli fundamental asari ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Alisher Navoiygacha Iskandar haqida yozilgan dostonlar qiyoslab o'rganilgan. Ikkinci qismda Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni tahlil qilingan. Biz ushbu maqolada mazkur asarning ikkinchi qismi haqida so'z yuritamiz. U 6 fasl va xulosadan iborat.

E.Bertels Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni tahliliga ko'ra kirishar ekan, uning qo'lyozmalari haqida gapiradi, tadqiqotchilar hamon shayx Murod kotib toshbosma nashridan foydalanib kelishayotganligi, shoirning 500 yillik yubileyi munosabati bilan 1941- yilda chop etilgan matndan ham tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin emasligini, chunki, birinchidan, har ikkala nashr ham to'liq emasligi, ayrim bayt va boblar tushirib qoldirilganini, binobarin, ular Alisher Navoiydek ulkan va jiddiy shoirning asari haqida to'liq ma'lumot berilmasligini, ikkinchidan, har ikkala nashrda ham ko'plab xato va kamchiliklar borligini misollar bilan ko'rsatib beradi va Alisher Navoiy asarlari ustida jiddiy tekstologik tadqiqotlar olib borishligini uqtiradi.

Muallif risolaning ikkinchi faslida Alisher Navoiy o'zining mazkur dostonining yuzaga kelishi haqida nima deganini anglashga harakat qilgan. Ma'lum bo'lishicha, shoir biroz tanaffus olishga majbur bo'lgan. Bu haqida olim shunday yozadi: “Navoiyni tanaffus olishga majbur qlgan holatni, albatta, hozir

aytish qiyin. Bu katta hajmdagi ishni bajarish bilan bog'liq oddiy charchoq ham bo'lishi mumkin. Beshinchি, so'nggi dostonning nomlanishiga kelsak, bu haqda Navoiyda ikkalanish bo'lmanligi aniq. "Xamsa" yaratilayotgan ekan, beshinchি doston faqat Iskandar haqida bo'lishi mumkin. Biroq bu qissaning qanday shaklda bo'lishi kerakligi masalasi shoirni jiddiy o'ylantirgani, shubhasiz. Uning ko'z o'ngida bu yo'lga kirganlarning muvaffaqiyatsiz urinishlari turgan".

Alisher Navoiy o'zigacha yozilgan "Xamsa" dostonlarni yaxshi bilgani bois o'quvchiga ma'lum narsalarni takrorlashni istamagan va butun e'tiborini Iskandarning arbob va donishmand bo'lganini isbotlashga, uning nutqini har safar qilgan ishlariga mos ravishda berish yo'li bilan bu chiziqlarni qo'shib yuborishga qaror qabul qilgan va bu haqida fikr almashinish uchun piri Abdurahmon Jomiy huzuriga borgan. Pir uning rejasini qo'llab-quvvatlagan va doston juda qisqa muddatda yakunlangan. Navoiy yozib tugatgan dostonni Abdurahmon Jomiyga ko'rsatadi. Pir asarni diqqat bilan o'qib chiqadi. Bu haqida Navoiy shunday yozadi:

Nazar oldi ochib varaq-varvaroq,

Bo'lub muftalotin chun ochib har varaq.

Bertels bu baytni sharhlar ekan, Jomiy eski o'zbek tilini yaxshi bilganligi, aks holda, uni o'qimagan bo'lishini tayin etdi.

Shunday ekan, Bertels pir va murid orasida sodir bo'lgan va keyinchalik juda ommalashib ketgan qiziq bir holatni, ya'ni Jomiy Navoiyning yelkasiga qo'lini qo'ygani va shu zahotiyoy hushidan ketib qolgani haqida yozadi.

Bertels mazkur faslning oxirida sharq mumtoz adabiyotini zamonaviylashirish mutlaqo noto'g'ri ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Risolaning uchinchi faslida Navoiy Iskandar haqidagi dostonning qurilishi haqida o'ylagani, Amir Xusrav Nizomiy qurilmasini biroz o'zgartirganini, Jomiy Nizomiy qurilmasidan bosh tortib, o'z dostonini ikki qismda yozganini, Navoiy bu borada yangi qurilmani kashf etib, katta muvaffaqiyatga erishganligini aytishadi.

Bertels Navoiy dostoni asosiy boblari tizimi quyidagicha bo'lganligini misollar bilan ko'rsatib beradi:

- a) Biror nazariy fikrni rivojlantiruvchi kirish;
- b) Shu fikr yoki kirish so'ngida aytilgan fikrni dalillovchi hikoyat;
- c) Iskandarning Arastuga savoli va donishmandning unga javobi;
- d) Iskandar haqidagi rivoyatlardan olingan parcha.

Shundan keyin tadqiqotchi Navoiyning mazkur dostoni birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari mazmun-mundarijasini bayon qiladi va shu tarzda Navoiy o'z dostonini quyidagi ikki chiziq asosida qurbanini asoslab beradi:

1.Iskandar – arbob.

2.Iskandar – donishmand.

Risolaning 4-5- fasllarida Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining mazmun-mundarijasi o‘rganilgan.

Oltinchi, yakunlovchi faslda Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni mutlaqo forsiy asliyatning tarjimasi ekanligi emasligini aytilgan.

#### **REFERENCES:**

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jildlik. – T.: Fan, 1992, 10-jild.
2. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. – T.: Adabiyot va san’at. 1991.
3. Muhiddinov M. Nurli qalblar gulshani. – T.: Fan, 2007.
4. Sirojiddinov S., Yusupova D., Davletov O. Navoiyshunoslik. T.: Tamaddun, 2019.
5. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021, 452 bet.